

| | |
|----------------------|-------------------------|
| ISBN | |
| Sertifika No | 13423 |
| Yayın Sıra No | xxx |
| Editör | Doç. Dr. Bahtiyar Aslan |
| Akademik Koordinatör | Emek Üşenmez |
| Tashih | Saadet Örmeci |
| Kapak Tasarımı | Sercan Arslan |
| Sayfa Düzeni | DBY Ajans |
| Baskı Tarihi | İstanbul, 2021 |
| Baskı / Cilt | |

Çalış Ofset Matbaacılık Ltd. Şti.
Davutpaşa Cad. Yılanlı Ayazma Sok.
Örme İş Merkezi No: 8 Topkapı / İst.
Tel. 0212 482 11 04 (Sertifika No: 12107)

Elektronik ortam ve tüm baskı hakları
Akademik Kitaplar'a aittir. © 2021



Alemdar Mah. Taşsavaklar Sokak No: 10 Kat: 3 D: 201

Karar Han - Cağaloğlu, Fatih / İstanbul

Tel: +90 532 576 54 30

www.akademikkitaplar.com • akademikkitaplar@gmail.com

ALİ ŐİR NEVÂİ VE ESERLERİ SEMPOZYUMU

BİLDİRİLER KİTABI

Editör
Doç. Dr. Bahtiyar Aslan



İstanbul, 2021

İÇİNDEKİLER

| | |
|---|----|
| TAKDİM..... | 13 |
| «МУҲОКАМАТУ-Л-ЛУҒАТАЙН» ҚЎЛЁЗМАЛАРИНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАҲЛИЛИ ВА АСАР ВАРИАНТЛИЛИГИ МАСАЛАСИ..... | 15 |
| Қосимжон Содиков | |
| COMPARATIVE ANALYSIS OF MANUSCRIPTS “МУНОКАМАТУ-Л- ЛУҒ’АТАЙН” AND THE ISSUE OF WORK VARIANCE | 17 |
| Sodikov Qosimjon | |
| АДАБИЁТ – ШАХСИЯТ ВА САНЪАТ КЎЗГУСИ | 31 |
| Ўброҳим Наққул | |
| NAVOIY VA QALANDARIYLIK | 37 |
| Sayfiddin Rafiddinov | |
| ALİ ŞİR NEVÂÎ ESERLERİNDE FÜTÜVVET GÂYESİNİN EDEBÎ YORUMU | 43 |
| Prof. Dr. Nurbay SABBAROV | |
| АЛИШЕР НАВОИЙ ДЕВОНЛАРИНИНГ АНИҚЛАНГАН ЯНГИ НУСХАЛАРИ (2010–2020 ЙИЛЛАР)..... | 51 |
| Афтондил Эркинов | |
| АБДУЛЛА ОРИПОВ ИЖОДИДА НАВОИЙ СИЙМОСИННИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ Гулбахор Ашурова | 63 |
| НАВОИЙ “ХАМСА”СИДАГИ УЧ ЎЛИМ ҲАҚИДА | 73 |
| Узоқ Жўракулов | |

| | |
|---|-----|
| НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ ЕТУК ТАДҚИҚОТЧИСИ | 85 |
| Тозагул Матёкубова | |
| Севинчой Якубова | |
| АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “САДДИ ИСКАНДАРИЙ” ДОСТОНИДА ДОРО ОБРАЗИ..... | 91 |
| Акрамжон ДЕҲҚОНОВ, | |
| NAVOIY FARDLARINING QOFIYA TIZIMI..... | 101 |
| Hamroyeva Orzigul Jalolovna | |
| АЛИШЕР НАВОИЙ ОБРАЗ ЯРАТИШ МАҲОРАТИНИНГ ХАЛАФЛАРИ | |
| ИЖОДИДАГИ ТАДРИЖИ | 107 |
| Дилфуза Авазова | |
| ТАРИХИЙ ДРАМАДА АЛИШЕР НАВОИЙ СИЙМОСИ..... | 115 |
| Вазираҳон Аҳмедова | |
| “ТУЛИ ВА НАВОИЙ” МУСИҚАЛИ ДРАМАСИННИНГ | |
| АДАБИЙ-БАДИИЙ МАНБАЛАРИ..... | 121 |
| Вазираҳон Аҳмедова | |
| ALISHER NAVOIY ASARLARIDA FANTASTIKA JANRI XUSUSIYATLARI | 125 |
| Muhamedova Saodat | |
| Abdullayeva Nurjahon Choriyevna | |
| НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТАБДИЛИ ЖАРАЁНИДА МАТНИЙ ТАДҚИҚ УСУЛЛАРИ..... | 135 |
| Манзар Абдулхайров | |
| “ҲАЙРАТ УЛ-АБРОР” ДОСТОНИДА ОДАМИЙЛИК ВА РАҲБАР | |
| МАЪНАВИЯТИ МАСАЛАСИ | 143 |
| М. Абдуллаева | |
| НАВОИЙ ИЖОДИДА ЕТАКЧИ МОТИВ..... | 147 |
| Ҳакимжоновна Раъно | |
| NAVOIY AN’ANALARI TABIBIY IJODIDA..... | 153 |
| Amonov ShermuhammadNormurotovich | |
| NAVOIY TANBEHLARIDA TARBIYA MASALALARI | 161 |
| Shoira Isayeva | |

| | |
|--|-----|
| “AZAL NAQQOSHI TARH AYLARDA...” | 165 |
| Abdukamol Abdujalilov | |
| НАВОИЙ ТИЛИ – МИЛЛАТ БОЙЛИГИ | 175 |
| Ахмад Қуронбеков | |
| “ЧИН ФИЗОЛИ” МЎЪЖИЗАСИ | 185 |
| Ахмад Қуронбеков | |
| НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИШҚНИНГ ТАРАННУМИ | 195 |
| Ахмад Қуронбеков | |
| NAVOIY AN’ANALARI TAKOMILIDA NAZIRALARNING O’RNI | 211 |
| Adizova Iqboloy Istamovna | |
| НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ МАТНИЙ ТАДҚИҚИ | 221 |
| Қувонов Зариф Омонбоевич | |
| NAVOIY SHUNOSLIKNING ECHIMINI KUTAYOTGAN MUAMMOLARI | 229 |
| Jumaxo’ja Nusratullo Ataullo o’g’li | |
| ALISHER NAVOIY – O’ZBEK ADABIY TILINI MUMTOZLIK DARAJASIGA KO’TARGAN SIYMO | 239 |
| Baxtiyor Abdushukurov | |
| ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI ZAYD ZAHHOB OBRAZI TALQINIGA DOIR YANGICHA QARASHLAR | 251 |
| Umarov Sardorbek Akmalovich | |
| “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA TAMAGIRLIKNING QORALANISHI | 261 |
| Ziyayeva Yulduz Temirxonovna | |
| ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINI TUZISHNING LINGVISTIK JIHATLARI | 267 |
| G’ulomova Nargiza Sa’dullayevna | |
| ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA BAYT POETIK BIRLIGINING MUSHOHADA ETILISHI | 271 |
| Jo’rayeva Nazokat Gulmuradovna | |

NAVOIY FARDLARINING QOFIYA TIZIMI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna

Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti
arguvon87@mail.ru

Annotatsiya

Alisher Navoiy fardlari poetik jihatdan mukammal shakllantirilgan bo'lib, shakl va mazmun mutanosibligi nazariyasiga to'liq javob beradi. Maqolada shoir fardlari poetikasi mukammalligini ta'minlab bergan asosiy unsurlardan biri qofiya tizimi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar

Poetika, fard, shakl va mazmun, qofiya harflari, radif, raviy, muqayyad, mutlaq, mujarrad, muassas, murdaf.

Abstract

Alisher Navoi's individuals are poetically perfectly formed and fully correspond to the theory of proportionality of form and content. The article explores the system of rhyme, one of the key elements that ensures the perfection of the poetics of the poet's individuals.

Key words

Poetics, individual form and content, rhyming letters, radif, raviy, muqayyad, mutlaq, mujarrad, muassas, murdaf

Fard mumtoz poetikada shoirlar ko‘p murojaat qiladigan janrlardan biri sanalib, Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida 10 janrning biri sifatida alohida izohlangan.[16: 25] Bu janr ijodkor xulosalari va qarashlarining yorqin ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Fard asarlarda qissadan hissa, xulosa tarzida keltirilishi bilan birga devonlardan mustaqil janr sifatida ham alohida o‘rin egallaydi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida fard asar xulosasi sifatida keltirilgan bo‘lsa, Navoiy, Bobur devonlarida alohida janr sifatida keladi. Fard hajman ixcham va mohiyatan xulosalarga tayanilgani uchun ham odatda hikmatli so‘z vazifasini bajaradi. Fard 2 misradan iborat bo‘lib, ular ba‘zan o‘zaro qofiyalanishi (*a-a*) yoki qofiyalanmasligi (*a-b*) ham mumkin. Bu esa shoirga ijodiy erkinlik beradi.

Alisher Navoiy fard janrida samarali ijod qilgan. Shoirning fardlari “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining “Favoyid ul-kibar” devoniga jamlangan. Bu esa o‘ziga xos ramziylikka ega. Shoir fard janri talabidan kelib chiqqan holda ularni xulosa sifatida tugallanuvchi devon tarkibiga kiritadi. “Favoyid ul-kibar” devonida shoirning 86 ta fardi keltirilgan bo‘lib, ularning aksariyatida axloqiy-ta’limiy g‘oya etakchilik qiladi. Alisher Navoiyning didaktik yo‘nalishdagi “Mahbub ul-qulub” asarida ham fikrning isboti tarzida fardlardan foydalaniladi. “Favoyid ul-kibar” devonida keltirilgan aksariyat fardlar o‘zaro qofiyalangan. Shoir poetika ilmining bilimdoni sifatida janrning mukammal shakllanishiga alohida e’tibor bergan. Shuning uchun ham 86 farddan 6 tasi: 21, 29, 82, 83,84, 86 raqamli fardlar o‘zaro qofiyalanmagan, xolos. [2: 741]

Navoiy fardlarini shartli ravishda quyidagi mavzularda yaratilgan deyish mumkin:

1. Tasavvufiy yo‘nalishda

Nabi shar’ig‘a topmoq istiqomat,
Erur solikka mushkilroq karomat. [2: 741]

Ulki, Haq borinda maqsud istagay har zotdin,
Mehr borinda yor yog‘lug‘ ko‘z tutar zarrotdin. [2: 741]

2. Axloqiy-ta’limiy yo‘nalishda

G‘ofil o‘lma, nazardin itsa adu,
Sham’ o‘churganda el ko‘runurmu? [2: 743]

Ulki, sanga eldin erur aybgo‘,
Elga dog‘i sendin o‘lur aybjo‘. [2: 742]

3. *Ishqiy yo'nalishda*

Yor vaslin toptim-u, mehr oshkoro qilmadi,
O'ylakim, hijroni o'rtar chog'da parvo qilmadi. [2: 744]

Ko'rmasam ul oyni o'lgudek, malolim bordur,
O'lturur ko'rgach, ajoyib sa'b holim bordur. [2: 744]

4. *Dunyoning o'tkinchiligi*

Dunyovu uqbo ikkisi ja'm o'lmas, ey rafiq,
Kimki ikki kema uchini tutar, bo'lur g'ariq. [2: 743]

Forig' el davronda bori qondadur?!
Kim bu davrondadur, darmondadur. [2: 746]

Navoiy fardlari o'ziga xos qofiya tizimiga ega. Shoir qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra barcha turlaridan unumli foydalangan. Muraddaf va radifsiz qofiyalar shoiming ma'lum bir maqsadini ifodalash uchun keltirilgan bo'lib, 86 farddan 28tasi muraddaf qofiyali fardlarni tashkil etadi. Muraddaf qofiyali fardlarda ta'kid va murojaat ma'nosi kuchliroq bo'lib, bu fardning badiiy qimmatini oshirgan.

Istasangkim, ko'rماغaysen bevafofig', ey rafiq,
Qilma olam ahli birla oshnolig'. ey rafiq. [2: 746]

Shoir fardlarining aksariyatida qofiyaning qo'shimcha tarkibiga ko'ra muqayyad qofiya turi etakchilik qiladi. Unga ko'ra qofiyadosh so'z qofiya harflarining tayanchi bo'lgan *raviy* bilan tugaydi.

Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut,
O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut. [2: 745]

Farddagi “*yoqut - qut*” so'zlari o'zaro qofiyadosh so'z sifatida *t* – raviy, tirgak tovush bilan tugagan, bunday qofiya muqayyad qofiya turini shakllantiradi.

Muzavvin makri bo'ldi mujibi qayd,
Nechukkim, tulki la'bi boisi sayd. [2: 746]

Farddagi “*qayd - sayd*” so'zlari qofiyadosh so'z bo'lib, ko'rinib turganidek, *d* – raviy bilan tugagan.

Navoiy qofiyada o'ziga xos ohangdorlikni oshirish maqsadi bilan qofiyaning mutlaq qofiya turidan ham unumli foydalangan. Bunday qofiya turi muqayyad

qofiya turidan farqli o'laroq, raviydan keyingi qofiya huruflari: *vasl*, *xuruj*, *mazid*, *noyira* kabilar kelishiga asoslanadi.

Ko'k bahridin yana tama' kom tutm_{ay}in,
Kim qatra su tomizmas, el og'zin qurutm_{ay}in. [2: 748]

Yuqoridagi fardda “*tutm_{ay}in - qurutm_{ay}in*” so'zlari o'zaro qifiyadosh so'z bo'lib, *t* undoshi raviy, *m* – *vasl*, *y* – *xuruj*, *n* – *mazid* qofiya harflaridan tashkil topgan, ya'ni raviy – *t* undoshidan so'ng ham qofiya harflari kelgan. Bunday qofiya turi mutlaq qofiya sanaladi.

Ko'ngulga futur o'lm_{ay}in, roz ochilmas,
Sadaf gar butun bo'lsa, gavhar sochilmas. [2: 750]

| | <i>Raviy</i> | <i>Vasl</i> | <i>Xuruj</i> | <i>Mazid</i> |
|----|--------------|-------------|--------------|--------------|
| O | ch | L | M | S |
| So | ch | L | M | S |

Navoiy fardlarida qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra deyarli barchasidan unumli va sifatli foydalangan, bu o'ziga xos rang-baranglik janr poetikasini go'zallashtirishga xizmat qilgan.

1. *Muassas qofiya*:

Qotiq el jismidin anbarlar olmay naqd emas vosil,
Ki tog'ni pora-pora qilmayin, la'l o'lmadi hosil. [2: 743]

Farddagi “*vosil – hosil*” so'zlari o'zaro qifiyadosh so'z sanalib, qofiyada muassas qofiya turini shakllantirishga xizmat qiluvchi qofiya huruflari: *daxil* va *ta'sis* ishlatilgan. “*Vosil - hosil*” qofiyadosh so'zlarida *l* – raviy sanalsa, raviydan oldingi bir harakatli undoshdan oldin keluvchi *o* unlisi *ta'sis* deyiladi. Shunga ko'ra bu qofiya turi muassas qofiya deb nomlangan.

Nabi shar'ig'a topmoq istiqomat,
Erur solikka mushkilroq karomat. [2: 741]

2. *Murdaf qofiya*:

Chunki soldi ishq ko'yidin meni davron yiroq,
Tengdurur ollimda no'shi vasl ila neshi firoq. [2: 745]

Murdaf qofiya turi qofiya huruflaridan biri - ridfga asoslanadigan qofiya turi bo'lib, raviydan oldingi cho'ziq unli *ridf* sanaladi. Demak, farddagi “*firoq - yiroq*” qofiyadosh so'zlardagi *q* – raviydan oldingi *o* unlisi *ridf* bo'lib, murdaf qofiya turini shakllantirgan.

Yuz ochib, yog‘lig‘ bila la‘lingni maktum aylading,
Gul chog‘i gulrang maydin bizni mahrum aylading. [2: 750]

3. *Muqayyad qofiya:*

Men sinuq, ko‘nglum sinuq, sabrim uyi xud erga past,
Bilmagay holim shikastin ko‘rmagan muncha shikast. [2: 746]

Muqayyad qofiya turi raviydan oldin *qayd* - undosh tovush kelishiga asoslanadi. “*Past - shikast*” qofiyadosh so‘zlardagi *s* undoshi muqayyad qofiya turini yuzaga keltiruvchi qayd sanaladi.

Muzavvin makri bo‘ldi mujibi qayd,
Nechukkim, tulki la‘bi boisi sayd. [2: 746]

4. *Mujarrad qofiya:*

Noz ila avval meni firefta qilding,
Emdiki, toptim fireb, shefta qilding. [2: 751]

Mujarrad qofiya turi raviydan oldin qisqa unli (qofiya harakati) yoki raviy unli tovush bilan tugashiga asoslanuvchi qofiya turi sanaladi.

Tindurur bo-yu jig‘oyni hokimi ravshan zamir,
Yorutur obod ila vayronani mehri munir. [2: 751]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mumtoz poetika ilmining bilimdoni Alisher Navoiy fardlarida qofiyadosh so‘zlarning mukammalligiga alohida e‘tibor bergan. Shuning uchun ham qofiyadosh so‘zlarning hech biridagi qofiya ayblari uchramaydi. Garchi ixcham janr bo‘lsa-da, shakl va mazmun butunligiga asoslangan fard janri Navoiy qalami bilan mukammallikka erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy. Risolai qofiyai Mulla Jomiy.// 8 jildlik. / (Nashrga tayyorlovchi A.Zuhuriddinov) Dushanbe, Adib. 1990.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar// To‘la asarlar to‘plami. 4-jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013.
3. Вохид Табризи. Джам и мухтасар. / Критический текст, пер. и примеч. А. Е Бертелса. Москва, 1959.
4. Жирмунский В. М. Рифма, ее история и теория /Теория стиха. Ленинград, 1975.
5. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. Toshkent, 2001.

6. Мусулманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X–XV вв. Москва, 1989.
 7. Nosiriddin Tusi. Mi'yar al-ash'or. Tehron, 1910.
 8. Рашидиддин Вотвот. Ҳадоийқ ус-сехр фи дақойиқ аш-шеър / Перевод с персидского исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова. Москва, 1985.
 9. Rustamov A. Qofiya nima? Toshkent, 1976.
 10. Rustamov A. Qofiya strukturasi ga oid bir nazariya haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1976. 3-son. B. 34-38
 11. Sa'diy A. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. Toshkent, 1923.
 12. Стеблова И.В. Арабо-персидская теория рифмы и тюркоязычная поэзия / Тюркологический сборник. Москва, 1996.
 13. To'uchiev U. Qofiya va uning nazariyasiga oid / Adabiyot nazariyasi. II tom. Toshkent, 1979.
 14. Umar Rodiyoniy. Tarjimon ul-balog'a / Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi Ahmad Otash. Tehron, 1943.
 15. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havaslilari uchun qo'llanma / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi H. Boltaboev. Toshkent, 1995.
 16. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchi: A.Hayitmetov). Toshkent, 1996.
 17. Шамси Қайси Розий. Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам. / Перевод с персидского исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова. Москва, 1997.
- Схарқ мумтоз поэтикasi. Ҳамидулла Болтабоев талқинида. Тосҳкент, 2008.